

Viloyat hokimining kapital qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik va obodonlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari vazifalarining taqsimoti

- kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, qurilish sub'ektlari o'rtasida bozor munosabatlarini joriy etish, pudrat, loyiha ishlari va qurilish materiallari bozorini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.
- tasarrufidagi idoralarda yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlarni ta'minlaydi. Investitsiya dasturlariga muvofiq ravishda qurilishlar manzilli ro'yxatini shakllantiradi va tasdiqlaydi, byudjet mablag'lari hisobiga barpo etilgan ob'ektlarning o'z vaqtida ishga tushirilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi.
- qurilish kompleksida pudrat, loyiha ishlariga bo'lgan davlat buyurtmasini tender asosida joylashtirishni, shuningdek uning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlaydi.
- hududda er va shaharsozlik davlat kadastrlarini shakllantirish va yuritish bo'yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshiradi.
- qurilishda bosh reja amalga oshirilishini ta'minlaydi, shuningdek, shaharlar, aholi punktlari qurilishida me'yor va qoidalarga rioya qilinishini nazorat qiladi.
- kommunal xizmat ko'rsatish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishning borishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;
- kommunal xizmatlar raqobat bozorini shakllantirishga imkoniyat yaratadi. Muhandislik ta'minoti tizimlari doimiy ishlab turishini tashkil etadi.
- transport va aloqa sohasida xizmatlarni ko'rsatish chora-tadbirlarini amalga oshiradi, transport va kommunikatsiya komplekslarida infratuzilmani shakllantiradi, ijro etuvchi hokimiyat tuzilmalariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimlarini joriy etishga ko'mak beradi.
- yo'llar ta'minotiga, transport inshootlarini rivojlantirish va aholini ichimlik suv hamda tabiiy gaz bilan ta'minlash, shuningdek aholi punktlari obodonlashtirilishini ta'minlash bo'yicha dasturlarni bajarishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.
- majmuaga kiruvchi sanoat korxonalari qurilish industriyasi faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularga amaliy yordam beradi.
- kapital qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik va obodonlashtirish masalalari bo'yicha kotibiyat faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Quyidagi viloyat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

- viloyat arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi;
- viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi;
- "Andijonavtoyo'l" hududiy yo'llardagi foydalanish davlat tashkiloti;
- "Janubgazqurilish" ochiq aktsiyadorlik jamiyati;
- "Obi-hayot" LTD korxonasi;
- "Andijonqurilish" ochiq aktsiyadorlik jamiyati;
- "Andijonjamoaqurilish" assosiatsiyasi;
- "Andijondehqonchilikqurilish" aktsiyadorlik birlashmasi;
- "Andijontrans" yuk va yo'lovchi tashish uyushmasi;
- "Uzavtodaryotrans" agentligi viloyat bo'limi;
- "Andijon" xalqaro aeroporti;

- viloyat "Avtotexxizmat" ochik aktsiyadorlik jamiyati;
- "Andijontransgaz" sho"ba korxonasi;
- "Andijontelekom" ochiq aktsiyadorlik jamiyati;
- "Andijonpochtasi" ochiq aktsiyadorlik jamiyati;
- "Andijon elektr tarmoqlari" ochik aktsiyadorlik jamiyati;
- Andijon magistral elektr tarmoqlari korxonasi;
- "Andijon issiqlik manbai" ochiq aktsiyadorlik jamiyati;
- "Andijonulgurjisavdo" ochiq aktsiyadorlik jamiyati;
- "O'zneftgazinspektsiya" viloyat bo'limi;
- "O'zsanoatkontexnazorat" agentligi viloyat bo'limi;
- "O'zenergonazorat" viloyat bo'limi;
- Andijon neftebazasi;
- "O'zstandart" agentligining Andijon viloyati bo'limi;
- "Andijonikkilamchiqorametallar" sho"ba korxonasi
- Viloyat uy-joy mulkdorlari shirkatlari uyushmasi;
- Viloyat "Trolleybus" boshqarmasi;
- Andijon viloyat qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazi;
- Andijon viloyat ekspertiza hududiy boshqarmasi;
- Andijon viloyat davlat arxitektura va qurilish nazorat inspeksiyasi;
- "Yunitel" MChJ, "Bilayn".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Respublika Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlari, viloyat hokimi qarorlari hamda farmoyishlari ijrosini majmua kotibiyati apparati, o'z tasarrufidagi tashkilotlar va idoralarda takomillashtirish va mustahkamlash masalalari.